

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi
№ _____
2015 - y. "___" _____

Vazirlikning 2015 - yil "___"
_____ dagi ____ - sonli
buyrug`i bilan tasdiqlangan

AN'ANAVIY VA XALQ QO'SHIQCHILIGI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar

Ta'lism sohasi : 110000 - Pedagogika

Bakalavriat yo'naliishi: 5111100 - Musiqa ta'limi

Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo’nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiglashtiruvchi Kengashning 2015-yil “___” ____ - son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Qodirov D.Q. - «Musiqa ta’imi» kafedrasи dotsenti

Taqrizchilar: Lutfullayev A.K. – O‘zbekiston davlat konservatoriysi professori

Xalilov F.N.- Nizomiy nomidagi TDPU professori p.f.d.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2015 - yil «___» _____ dagi ___-sonli bayonnomasi).

KIRISH

An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi bo'yicha beriladigan bilimlar tizimini o'zida ifoda etadi. Shu o'quv dasturi xalq qo'shiqchiligi bilan birga an'anaviy ijrochilik - dostonchilik san'ati durdonalaridan namunalar o'rganadilar.

Dasturda «An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi» bo'yicha xar bir kurs talabalari oldida qo'yiladigan vazifalar, ular egallashi mumkin bo'lgan bilimlar: nola, qochirim va boshqa malakaviy ijrolar bo'yicha uslubiy yo'llanmalar ko'rsatilgan hamda, o'rganiladigan asarlarning taxminiy ro'yxati berilgan. Dasturga kiritilgan asarlar talabalarning ijro, ovoz imkoniyatlari, kuylash malakalariga moslab tanlangan. Dasturdagi laparlar, yallalarga xos o'zbekona nola va bezaklarni amalda qo'llay olish xaqida nazariy va amaliy bilimlar berilgan.

Fanining maqsadi va vazifalari

Mazkur fanning asosiy **maqsadi** - talabalarining xalq qo'shiqchiligiga xos o'quv malakalarini shakllantirish, ularga xalq qo'shiqlarini jamoa bo'lib va yakka holda kuylay olish va maqom guruhlarini tashkil qila olish psixologiyasi bo'yicha mukammal bilim berish va jamoaga rahbarlik qila olish xususiyatlarini singdirishdan iborat. Kursni maqsadidan kelib chiqqan holda, guruhli darslarda bir qator **vazifalar** amalga oshiriladi.

O'zbek xalq qo'shiqchiligiga xos «binnigi» uslubida kuylash malakalarini egallah.

Guruh va yakka holda kuylashning tabiatni, didaktik tamoyillari va boshqa qonuniyatlarni bilib olish.

Xalq qo'shiqchiligi va maqom repertuarlari bilan bevosita tanishish va ularni tanlash bo'yicha yuksak badiiy didga ega bo'lish.

Jamoada kuylash va u bilan ishlash jarayonida inson organizmida yuz beradigan ruhiy-fiziologik o'zgarishlarni xis qilish va unga ko'nikma hosil qilish.

Maqom qo'shiqchisiga va maqomchilar dastasi rahbarligiga qo'yiladigan talabalarni bilish va unga o'rgana borish.

Kursning fan bo'yicha quyidagi vazifalari amalga oshiriladi.

An'anaviy va xalq qo'shiqchilagini o'rganish.

An'anaviy ijrochilikda xalq qushiqlari 4 turi haqida tushuncha berish. Mehnat qo'shiqlari, mavsum marosim va urf-odat qo'shiqlari, lirik qo'shiqlari, termalar.

An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi namunalari ijrosi bilan amaliy tanishish:

- talabalarning milliy musiqiy ma'naviyatimiz haqidagi bilim darajasini kengaytirish, repertuarini boyitish, nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash;

- talabalarning milliy an'analarga bo'lgan qiziqishi va xurmatini oshirish;

- o'zbek xalq qo'shiqchiligiga xos, nola, qochirimlarni maromiga yetkazib, kuylashga odatlantirish;

- jamoa bo'lib kuylashning tabiatni, didaktik tamoyillari va boshqa qoidalarini bilib olish;

- xalq qo'shiqchiligi va maqom repertuarlari bilan bevosita tanishish va ularni tanlash bo'yicha yuksak badiiy didga ega bo'lish;

- talabalarni umumiy musiqiy qobiliyatlarini o'stirish;
- kuylash va ishslash jarayonida inson organizmida ro'y beradigan ruhiy-fiziologik va holatlarni his etish va unga ko'nikma hosil qilish;
- xonandalarga va maqomchilar dastasi rahbariga qo'yiladigan talablarni bilish va unga amal qilish.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Bakalavr:

O'zbek xalq cholg'u asboblari – rubob, doira, tanbur v.b. jo'rligida

- an'anaviy va xalq qo'shiqchiligi va uning tarixiy taraqqiyoti;
- an'anaviy va mumtoz qo'shiqchilik namoyandalari bilan tanishish;
- mushkilot" bo'limlari ijrochiligi;
- Nasr" bo'limlari ijrochiligi;
- an'anaviy va xalq qo'shiqchiligi bo'yicha bilimlarni shakkantirishdagi o'rni;
- maqom ijrochiligi ilmining musiqa madaniyatini o'rganishdagi ahamiyati

haqida bilimga ega bo'lishi;

- qadimgi, o'rtalarda yangi asrlarda o'zbek musiqashunosligining taraqqiyot tarixi;

- musiqa folklori, an'anaviy va mumtoz musiqaning rivojlanish tendentsiyalari;

- maqom san'atining o'ziga xos xususiyatlari;

- taniqli bastakorlar va mumtoz qo'shiqchilik ijrochilar iiodi;

- xalq qo'shiqchiligi va maqom repertuarlari bilan bevosita tanishish va ularni tanlash bo'yicha yuksak badiiy didga ega bo'lismi, **ko'nikmalariga ega bo'lishi**

- talabalarni umumiy musiqiy qobiliyatlarini o'stirish;

- kuylash va ishslash jarayonida inson organizmida ro'y beradigan psicho-fiziologik va ruhiy holatlarni his etish va unga ko'nikma hosil qilish;

- xonandalarga va maqomchilar dastasi rahbariga qo'yiladigan talablarni bilish va unga amal qilish.

- Mazkur fanni o'qitish jarayonida talabalar quyidagi bilimlarni o'zlashtirishi kerak:

- 12 maqom tizimi haqida tushunchaga ega bo'lismi kerak;

- shashmaqom, mushkilot, nasr qismlari nomlarini bilish;

- Ijrochilik maktabi bo'yicha repertuar tanlash, yakka va guruhli jamoada asarlarni o'rgata olish, asarlarni kuylash;

- o'tmish maqom bilimdonlari, olimlarning mavzuga oid risolalarini bilish;

- ijrochilik maktabi bo'yicha repertuar tanlash, yakka va guruhli jamoada asarlarni o'rgata olish, asarlarni kuylab berish **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

Fanning o'quv rajasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatidan uzviyiligi

Mazkur fanlar 5-6-7 semestrlarda o'qitilib «An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi» fanini o'zlashtirish uchun talabalar: vokal ijrochiligi, dirijyorlik, solfedjio, musiqa

nazariyasi, musiqa tarixi, cholg'u ijrochiligi va ansambli, xor va xorshunoslik, musiqa to'garaklarini tashkil etish, pedagogika, psixologiya va boshqa musiqaga oid bo'lgan fanlardan tegishli bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish lozim.

Fanning ta'limdagi o'rni

Musiqa ta'lim yo'naliishida o'qitiladigan umumkasbiy fanlar ichida an'anaviy va xalq qo'shiqchiligi fani muxim axamiyat kasb etadi. Mazkur fan orqali talabalar an'anaviy qo'shiqchilik malakalarini egallah bilan birga mumtoz qo'shiqchilik, an'anaviy xonandalik bo'yicha nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi ijrochilik bo'yicha egallashi lozim bo'lgan barcha ko'nikma malakalar – sozandalik, xonandalik kabi kasbiy maxoratlarini o'zlashtirib mashg'ulotlar jarayonida ularga taqdim etib boriladi. An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi fanidan o'zlashtirilgan bilimlar musiqa o'qituvchisini kasbiy maxorat va tajribaga ega bo'lishiga yordam beradi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot vapedagogik texnologiyalar

Kursni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalari, interaktiv usullar: «Blits» o'yin, «FSMU», «3x4», «Aqliy xujum», «Elpig'ich», «Chinni gul», «Kuchsiz zanjir» kabilardan foydalanish. Lingafon apparatlari, kompyuter texnikasi, magnit yozuvlari, plastinkalar, test savollari, tarqatma materiallar, o'zbek kuylaridan maqom mushkilotlari, maqom sho'balaridan tuzilgan kontsert dasturlaridan foydalanish lozim bo'ladi.

ASOSIY QISM Fanning nazariy mashgulotlari mazmuni

An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishda an'anaviy uslubda ovoz sozlash mashqlarini axamiyati nixoyatda kattadir. Ijro vaqtida milliy bezak va nolalar zamzama, qochirimlardan keng ko'lamda foydalanish bu fanning muxim shartlaridan xisoblanadi.

An'anaviy uslubda kuylash malakalarini shakllantirishda an'anaviy ijro yo'lida ovoz sozlash mashqlari o'tkaziladi. Ijrochi kuylash chog'ida nafasini tekis, ravon olib, ashula matnidagi keraksiz bo'g'in bo'linishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. So'zlar to'liq ijro etilib, she'rdagi ma'no to'liq tugaganidan so'ng, nafas olish uchun imkon yaratiladi. Ovoz sozlash mashqlaridan foydalanish vaqtida mumtoz ashulalardan qisqa-qisqa namunalarni ijro qilish mumkin. "Segox", "Chorgox" va boshqa asarlar.

Dasturda kuylash malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish uchun sodda asarlardan murakkab asarlarga qarab ijro etish nazarda tutiladi. O'zbek xalq ashulalari, bastakorlar ijodi, mumtoz ashula va SHashmaqomdan namunalar. Xar bir ijro qilinadigan asarlarning CD, DVD, MP 3 musiqiy disklari mavjud bo'lib, talabalar

jonli ijro qilish jarayonida asarlarning elektron variantidan foydalanib, xar bir ashuladagi mukammal darajadagi ijrosiga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari:

O'zbek xalq qo'shiqlari

- «Bilakuzuk» - (aytishuv).
- «Qilpillama» - xalq she'ri.
- «Ey voy sanam» - xalq she'ri.
- «Tanovalar-II» - Muqumiy g'azali.
- «Qoraqosh» - (aytishuv).
- «Yali-yali» - A.Navoiy, xalq qo'shig'i.
- «Ililla yor» - xalq she'ri.
- «Qo'shchinor» - A.Navoiy g'azali.
- «Ulkun jonon» - Muqimiy g'azali.
- «Farg'onacha jonon-II» - Muqumiy g'azali.

Bastakorlar asarlari

- «Etmasmidim» - K.Jabborov musiqasi, Fuzuliy g'azali.
- «Bu ko'ngil» - K.Jabborov musiqasi, Lutfiy g'azali.
- «Ne ajab» - O.Nuritdinov musiqasi, Navoiy g'azali.
- «Koshki» - Yu.Rajabiy musiqasi, Navoiy g'azali.
- «Yor mehri» - Yu.Rajabiy musiqasi, Navoiy g'azali.
- «O'ynasin» - T.Jalilov musiqasi, Uyg'un she'ri.
- «Diyorimsan» - K.Jabborov musiqasi, Xabibiy g'azali.
- «Mubtalo bo'ldim senga» - K.Jabborov musiqasi, Navoiy g'azali.
- «Ey sabo» - D.Zokirov musiqasi, Navoiy g'azali.
- «Qiz qo'shig'i» - Yu.Rajabiy musiqasi, X.Olimjon she'ri.

Maqom sho'baları

- «Talqinchai mustaxzodi navo» - Lutfiy g'azali, Navo maqomidan.
- «Qashqarchai mustaxzodi navo» - Furqat g'azali, Navo maqomidan.
- «Soqinomai mustaxzodi navo» - Nishotiy g'azali, Navo maqomidan.
- «Qashqarchai savti kalon» - A.O'tar g'azali, Rost maqomidan.
- «Soqinomai savti kalon» - Bobur g'azali, Rost maqomidan.
- «Abduraxmonbegi» - Muqimiy g'azali.
- «Saroxbori dugox-2 taronasi» - Navoiy g'azali, Dugox maqomidan.
- «Saroxbori dugox-3 taronasi» - Navoiy g'azali, Dugox maqomidan.
- «Dugox» - maqomidan, «Oromijon» - Bobur g'azali.
- «Nasri bayot» - Nodira g'azali, Rost maqomidan.

Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni

O‘rganilayotgan fan bo‘yicha talabalarga mustaqil ishni tashkil etish uchun quyidagi ish shakllari tavsiya qilinadi:

- darslik va o‘quv qo’llanmalardagi tegishli bo‘lim va mavzular konspektini tuzish;
- fanlarning berilgan bo‘limlari yoki mavzulari bo‘yicha maxsus adabiyotlar bilan ishlash;
- tarqatma materiallar yordamida ma’lum mavzu mazmunini o‘zlashtirish;
- berilgan tovushdan yoki tonalikda interval,akkord, diatonik va xromatik gammalar tuzish;
- berilgan kuy ovozi yoki bas ovozini garmoniyalash;
- berilgan asarning garmonik tahlilini qilish;
- berilgan asarning shakl tuzilishini tahlil qilish;
- berilgan tovushdan yoki tonalikda tuzilgan diatonik va xromatik gamma, sekvensiya, interval,akkordlarni aylanmalari va yechilishlari bilan intonatsiyalash hamdaakkordlar ketma-kenliklarini kuylash;
- bir va ikki ovozli nomerlarni solfedjiolash;
- har xil usuldagagi musiqiy diktant yozish;
- musiqa elementlarini eshitib turib tahlil qilish.

Tavsiya etiladigan mustaqil ishlar mavzulari

Mazkur fan bo‘yicha mustaqil tayyorgarlik - berilgan mavzular bo‘yicha amaliy mashg’ulot o’tkazish muximdir. Talabalar bu jarayonda o‘rganilgan mavzu va ashula bo‘yicha bilim ko’nikma malakalarini mustaqil ravishda shakllantira boradilar.

Berilgan asarning notalari, matn, konspekt, ijro uslubini mustaxkamlash uchun qo’shimcha shug’ullanish imkoniga ega bo’lgan talaba nota, matn, ashula ijrosi ustida belgilangan soat jarayonida ish olib boradi.

Talaba mustaqil ishni o’tkazishda fan xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda quyidagi shakllardan foydalanadi.

- Mavzularga oid adabiyotlar – nota, matn, mualliflar xaqidagi ma’lumotlarni o’rganish, tanishib chiqish (axborot resurs markazlarida)
- Darslik o‘quv qo’llanmalardan mavzuga oid materiallarni to’plash, o’rganish.
- Mavzu bo‘yicha ashulaning elektron varianti CD, DVD, MP 3 musiqiy disklarni tinglab, ijroni o’rganish.
- Fan bo‘yicha tashkil qilingan to’garakda “Ustoz-shogird” an’anasida qo’shimcha mashg’ulotlar o’tkazish, ijro yo’llarini mustaxkamlash.
- Mavzuga oid “Internet” va “Ziyonet” saxifalaridan qo’shimcha materiallar bilan boyitish.

Mustaqil ishlar talabalar tomonidan mustaqil ijro shakli sifatida tashkil etiladi. Musiqiy kontsert dasturlari, teatr va sahna asarlarini kuzatish shakllari orqali o‘rganilayotgan asarlar ustida ish olib boriladi:

Dasturning informatsion - uslubiy ta'minoti

Mazkur fanlarni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot - kommunikatsion texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutiladi:

- Maqom asoslari va xalq qo'shiqchiligi fanlari bo'yicha nazariy bilimlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari saytlaridagi elektron darsliklar namunalaridan foydalanish;

- o'rganiladigan asarlar ijrosi yozilgan musiqiy disketlar, CD, DVD, MP3 va magnitafon lentalari;

- musiqiy filmlar yozilgan xujjatli disklar;

- O'zbekiston televideniyasi «Oltin fondi»da saqlanayotgan «SHashmaqom», «Oltin meros», mumtoz ashulalari va filmlardan vizual holda foydalanish;

- talabalarda badiiy ijrochilikni shakllanishiga, musiqiy did va bilimlarini kengaytirishiga asos bo'ladi.

Didaktik vositalar

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko'rsatkich (ukazka).

video – audio uskunalar- video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidaqi proektor, DVD – diskovod, Web – kamera, video ko'z.

Foydaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. D.Q.Qodirov. «An'anaviy qo'shiqchilik». Toshkent. «Iqtisod-moliya» nashriyoti. 2008 yil.

2. M.Jalilov. «Qo'shiqlar xristomatiyasi». I-II kitob. Toshkent. 2002-2003 yil.

3. M.Jalilov, J.Sadirov. «Qo'shiqlar xristomatiyasi». Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 1995 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. O.Matyoqubov. «Moqomat». Toshkent. «Musiqa» nashriyoti. 2004 yil.

5. I.Rajabov. «Maqom asoslari». O'rta va oliy o'quv Yurtlari uchun metodik qo'llanma. O'zbekiston madaniyat vazirligi madaniyat bo'limi. Toshkent. 1992 yil. 90-bob.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-intranet.Ped